

**O'RTA OSIYONING ANTIK DAVRI: TARIXIY VA
MADANIY IZLAR**

Pardayev Muhtorqul Hasanovich

Y. G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti

yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi, dotsent,

Tangirqulov Latifjon G'ulom o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola O'rta Osiyodagi Antik davr yodgorliklari:*

Dalvarzintepa, Fayoztepa, Ayritom, Xolchayon, Kampirtepa va Tuproqqal'a maskanlari orqali mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojini yoritadi. Maqolada yodgorliklardan topilgan haykallar, devoriy rasmlar, tangalar, ibodatxonalar va me'moriy inshootlar tahlil qilinib, Antik davr jamiyatining shahar hayoti, savdo aloqalari va diniy e'tiqodlari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, yodgorliklarni saqlash va o'rganishning tarixiy va madaniy ahamiyati ham ko'rsatilib, ularning kelajak avlod uchun meros sifatida saqlanish zarurligi ta'kidlangan

Kalit so'zlar: *Antik davr, O'rta Osiyo yodgorliklari, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Ayritom, Xolchayon, Kampirtepa, Tuproqqal'a, shaharsozlik madaniyati, savdo yo'llari, san'at va diniy e'tiqod, madaniy meros, arxeologiya tadqiqotlari*

O'rta Osiyo qadimdan turli sivilizatsiyalar uchrashgan hudud bo'lib, Antik davr mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojida muhim o'rin tutadi. Miloddan avvalgi IV asrdan milodiy IV asrgacha Yunon-Baqtriya, Kushon va boshqa davlatlar shakllanib, shaharlar, savdo yo'llari, san'at va diniy hayotning rivojlanishi kuzatilgan. Antik davr jarayonlari Dalvarzintepa, Fayoztepa, Ayritom, Xolchayon, Kampirtepa, Tuproqqal'a kabi yirik yodgorliklarda aniq iz qoldirgan[1]. Ushbu maqola Antik davr yodgorliklarining tarixiy va madaniy ahamiyatini

yoritishga, ularning kelajak avlodlar uchun saqlanish zarurligini ko'rsatishga qaratilgan.

O'rta Osiyodagi Antik davr yodgorliklari shaharsozlik, savdo yo'llari, diniy e'tiqod va san'atning rivojlanganligini aks ettiruvchi muhim tarixiy va madaniy manbalarni tashkil qilib, topilgan haykallar, devoriy rasmlar, tangalar va ibodatxonalar orqali jamiyat hayoti va iqtisodiy aloqalarni o'rganish imkonini beradi hamda ularni saqlash kelajak avlodlar uchun tarixiy va madaniy meros sifatida katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Quyida ularning tadqiqoti, ahamiyatli jihatlariga birin-ketin to'xtalib o'tamiz:

Dalvarzintepa yodgorligi Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanida joylashgan bo'lib, 1971 yilda arxeologik qazishmalar davomida 115 ta oltin buyumlardan iborat xazina topilgan[2]. Bu xazinalar orasida uzuklar, sopol idishlar, bilakuzuklar, taqinchoqlar, haykalchalar va tangalar mavjud bo'lib, milodiy II–III asrlarga tegishlidir. Yodgorlik hududida ibodatxonalar mavjud bo'lib, buddizmga oid haykallar topilgan. Shuningdek, yodgorlik atrofida Kushon davriga oid Tulhar qabristoni aniqlangan, undagi qabrlardan murdalar qumga ko'milganligi va qurol, taqinchoq, sopol idishlar topilgan. Dalvarzintepani L.I. Albaum kashf qilgan va 1970 yildan G.A. Pugachenkova boshchiligidagi san'atshunoslik institutining arxeologik guruhi o'rganish ishlari olib borgan.

Fayoztepa Termiz shahri yaqinida 1968 yilda kashf etilgan. Arxeologik qazishmalarni L.I. Albaum olib borgan. Fayoztepadan topilgan buyumlar nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda, xususan Yaponiyada bir necha bor namoyish etilgan. Hududdan 130 dan ortiq yodgorliklar viloyat arxeologik xaritasiga kiritilgan va ularning bir nechtasi Antik davrga oid[3]. Fayoztepa O'rta Osiyo savdo va madaniy aloqalarining rivojlanishini ko'rsatadi, shuningdek, shaharsozlik va ibodatxona qurilishi bilan diqqatga sazovor.

Ayritom Surxondaryo viloyati Termiz shahridan 18 km sharqda, Amudaryo sohilida joylashgan. M.E. Masson 1932 yilda bu yerda topilgan tosh rasmlarni o'rgangan. Ayritom ibodatxona qoldig'i bo'lib, eng katta topilmalardan biri ud

chalayotgan ayol haykali hisoblanadi. Bundan tashqari budda haykallari ham mavjud[4]. Ayritom diniy hayot va tasviriy san'atning rivojlanganligini ko'rsatadi.

Xolchayon Denov tumanida joylashgan bo'lib, ikki qismdan iborat. Yodgorlikdan 9 qavatli hokim saroyi topilgan. Saroy 4 ustunli ayvon, tasviriy san'at va haykaltaroshlik namunalari bilan bezatilgan. S.P. Tolstov Xolchayon va atrof hududlarni o'rgangan, hududdan shaxsiy buyumlar, taqinchoqlar va marjonlar topilgan.[5]. Xolchayon shahar hayotining murakkab ijtimoiy tuzilishini va san'atning rivojlanishini aks ettiradi.

Kampirtepa miloddan avvalgi III asrdan milodiy III asrgacha mavjud bo'lib, Sho'rob qishlog'ida joylashgan. Qal'a 1972-yilda E. Rtveladze tomonidan kashf qilingan va 1977-yilda Shokir Pidayev boshchiligida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti ishchi guruhi tomonidan o'rganilgan. Madaniy qatlami 10 metr bo'lib, bu hududning uzoq tarixiy rivojlanishini ko'rsatadi[6].

Tuproqqal'a Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanida joylashgan. Qal'a to'g'ri to'rtburchak shaklda qurilgan, mudofaa devorlariga ega va maydoni 17,5 gektarni tashkil qiladi. XX asr 40–50 yillarida S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Hududda shimoli-g'arbda saroy mavjud bo'lib, maydoni 6,5 ming m², saroy devorlarida haykal tasvirlari mavjud, 120 ga yaqin podsholik arxiv hujjatlari topilgan[7].

Ushbu yodgorliklar orqali Antik davr jamiyatining shaharsozlik, savdo yo'llari, diniy hayot va san'at rivojini aniqlash mumkin. Savdo yo'llari orqali O'rta Osiyo boshqa sivilizatsiyalar bilan aloqada bo'lgan, bu esa iqtisodiy va madaniy almashuvni kuchaytirgan. Shaharlar va ibodatxonalar esa mintaqada siyosiy va diniy markaz sifatida faoliyat yuritgan. Haykallar, devoriy rasmlar va boshqa san'at asarlari Antik davr madaniyatining estetik va ma'naviy tafsilotlarini aks ettiradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, O'rta Osiyoning Antik davr yodgorliklari: Dalvarzintepa, Fayoztepa, Xolchayon, Ayritom, Kampirtepa, Tuproqqal'a va boshqalar — qadimgi shaharlar, savdo yo'llari, diniy markazlar va san'atning rivojlanishini ko'rsatadi. Bu obidalar orqali o'sha davr jamiyatining siyosiy tuzumi, madaniy hayoti va iqtisodiy aloqalari haqida to'liq tasavvur hosil qilamiz.

Yodgorliklarni saqlash va o'rganish kelajak avlodlar uchun muhim vazifa hisoblanadi. Antik davr yodgorliklari mintaqaning tarixiy va madaniy merosini chuqur tushunish va baholashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Albaum L.I. Dalvarzintepa: arxeologik topilmalar va tahlil.(tarjima) Termiz. 1975. 21-25-b.
- 2.Pugachenkova G.A. O'rta Osiyo antik san'ati. (tarjima). Moskva. 1982. 17-20-b.
- 3.Rtveladze E. Fayoztepa yodgorliklari va ularning xaritaga kiritilishi. (tarjima). Tashkent. 1970. 9-16-b.
- 4.Masson M.Y. Ayritom tosh rasmlari va ibodatxonalar. (tarjima). Leningrad. 1935. 12-15-b.
- 5.Tolstov S.P. Xolchayon va uning atrofidagi yodgorliklar. (tarjima). Moskva. 1950. 3-11-b.
- 6.Pidayev Sh. Kampirtepa arxeologik tadqiqotlari. (tarjima). Tashkent. 1980. 37-39-b.
- 7.Tolstov S.P. Tuproqqal'a va Ellikqal'a hududining arxeologik tadqiqotlari. (tarjima). Moskva. 1955. 49-53-b.